

# Rossiya Federatsiyasi shaharlariga parvozlar jadvali va yoʻnalishini oʻzgarishi

2022 2 March

Rossiya Federatsiyasi tomonidan havo hududining bir qismi yopilishi bilan bogʻliq cheklovchi chora-tadbirlarni hisobga olgan holda, Uzbekistan Airways aviakompaniyasi yoʻlovchilariga qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, joriy yilning 3-martidan 26-martigacha Oʻzbekiston – Sochi – Oʻzbekiston yoʻnalishi boʻyicha qoʻshimcha qatnovlar joriy etilgani haqida maʼlum qilamiz!

Qoʻshimcha reyslar kiritilganidan kelib chiqib, quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha havo qatnovi toʻxtatilgan:

HY3687/3688 va HY9687/9688 Toshkent – Krasnodar – Toshkent yoʻnalishi boʻyicha;

HY9647/9648 Toshkent – Rostov-na-Donu – Toshkent yoʻnalishi boʻyicha;

HY9825/9826 Namangan – Krasnodar – Namangan yoʻnalishi boʻyicha parvozlar

?? Sochi shahriga amalga oshiriladi ??

Yoʻlovchilar aeroportlarga belgilangan vaqtdan oldinroq kelishlari kerak. Shuningdek, Krasnodar va Rostov-na-Donu shaharlariga/shaharlaridan avval bekor boʻlgan parvozlar yoʻlovchilari aviachiptalarining toʻliq qiymatini chipta sotib olingan joyda qaytarib olishlari yoki 2022-yil 3-martdan boshlab har qanday boʻsh sanaga bepul qayta bronlash huquqiga egadirlar.